



**SIRDARYO VILOYATI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
BUYRUG‘I**

6 may 2024 yil.

164-ICH-son

**Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida
“Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi”ni belgilash
to‘g‘risida**

Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘lim va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari hujjatlarini rasmiylashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibini belgilash maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 20-iyul kunidagi 121-son buyrug‘i ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Quyidagilar:
huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga;
aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 2-ilovaga;
korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 3-ilovaga;
korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Bosh boshqarma apparati, tuman (shahar) bo‘limlari va tasarrufiy tashkilotlar mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.
4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig‘i



Sh.Yakubov